

Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

2025-yil yanvar-oktabr oylari uchun


- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida, Farg'ona viloyatida jami 14 886,4 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,7 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

■ Hajm, mlrd so'mda ■ O'sish sur'ati



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	14 886,4	113,7
shaharlar:		
Farg'ona shahri	2 774,9	110,8
Qo'qon shahri	837,0	108,0
Quvasoy shahri	359,6	150,0
Marg'ilon shahri	1 447,0	110,6

	Hajm, mlrdso'm	O'sish sur'ati, %
davomi		
tumanlar:		
Oltiariq tumani	457,5	111,9
Qo'shtepa tumani	541,0	115,8
Bag'dod tumani	354,6	120,4
Buvayda tumani	399,4	113,9
Beshariq tumani	222,6	110,3
Quva tumani	355,5	106,8
Uchko'priq tumani	424,3	119,4
Rishton tumani	157,0	116,4
So'x tumani	127,7	107,0
Toshloq tumani	466,2	103,1
O'zbekiston tumani	499,6	210,8
Farg'ona tumani	401,4	116,3
Dang'ara tumani	392,8	119,2
Furqat tumani	184,8	115,0
Yozyovon tumani	299,8	117,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 72,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,8 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 31,0 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,1 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 131,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	1 368,5	957,4	166,9
<i>o'sish sur'ati, %</i>	92,5	64,7	144,5
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	4 766,6	2 131,7	891,0
<i>o'sish sur'ati, %</i>	116,9	52,3	128,9
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	4 592,9	11,4	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	101,4	0,3	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-oktabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 492,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 121,5 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,0 % ga ko'payib, 16,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 52,4 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 119,7 % ni tashkil etgan holda 7 789,3 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 30,9 % ni yoki 4 604,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 101,4 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari

- yiriklar hajmi, mlrd so'mda
- kichik va mikrofirma hajmi, mlrd so'mda
- norasmiy sektor hajmi, mlrd so'mda
- yiriklar o'sish sur'ati
- ✕ kichik va mikrofirma o'sish sur'ati
- norasmiy sektor o'sish sur'ati



Shahar, tumanlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Farg'ona viloyati	2 492,8	7 789,3	4 604,3	121,5	119,7	101,4
shaharlar:						
Farg'ona shahri	401,8	2117,8	255,3	135,4	106,9	113,0
Qo'qon shahri	93,1	526,8	217,1	64,6	124,2	105,0
Quvasoy shahri	8,2	309,2	42,2	47,9	203,5	59,1
Marg'ilon shahri	773,5	535,4	138,1	117,2	104,8	100,5
tumanlar:						
Oltiariq tumani	19	303,5	135	36,5	135,7	101,3
Qo'shtepa tumani	255,1	161,9	124	144,9	96,6	100,1
Bag'dod tumani	29,5	191,2	133,9	191,6	138,6	94,5
Buvayda tumani	88,1	233,3	78	99,7	143,1	78,3
Beshariq tumani	16,1	111,8	94,7	152,9	125,9	92,1
Quva tumani	18	182,8	154,7	122,0	141,9	81,4
Uchko'prik tumani	11,8	367,8	44,7	115,5	123,0	96,8
Rishton tumani	12,6	55,9	88,5	142,0	78,8	161,7
So'x tumani	14,1	94,7	18,9	294,5	102,1	86,3
Toshloq tumani	16,9	289,1	160,2	178,4	91,7	126,2
O'zbekiston tumani	13,6	431,6	54,4	78,7	280,1	82,0
Farg'ona tumani	136,8	158,3	106,3	175,5	92,8	109,9
Dang'ara tumani	29	300,3	63,5	33,6	165,5	102,5
Furqat tumani	11,2	93,1	80,5	170,2	118,5	106,4
Yozyovon tumani	56,5	162,7	80,6	229,2	96,3	129,8

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari 2024-yilning mos davriga nisbatan So'x tumanida 2,9 marta va Yozyovon tumanida 2,3 marta qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari O'zbekiston tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,8 marta), Quvasoy shahrida (2024-yilning mos davriga nisbatan 2,0 marta) va Dang'ara tumanida (1,7 marta) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining Farg'ona viloyat boshqarmasi statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
L.Yefimova
73 241-98-42
